

**MAKTABGACHA TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

*Farg'ona viloyat pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
kafedrası professor-o'qituvchisi **Hokimjonova Maftuna***

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlarning samaradorligi, bolalarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiylashuv qobiliyatini rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy metodlardan foydalanishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, ijodkorlik, ta'lim sifati, tarbiya.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, axborot texnologiyalari rivoji pedagoglardan yangicha yondashuv va metodlarni qo'llashni talab qilmoqda. Bolalarning shaxs sifatida shakllanishi, tafakkuri va ijtimoiy ko'nikmalarining rivojida zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy ahamiyati shundayki, yurtimizda jahon axborot tizimining infratuzilmalari va milliy axborot tizimi tarmog'ining integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish ta'lim, fan, innovatsiyalar, iqtisodiyot, sanoat va boshqaruv samaradorligining oshishidan muhim omil bo'lib kelmoqda. Shu boisdan zamonaviy ta'limda axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanishni bilish va uni amaliyotda qo'llay olish muhim kasbiy ko'nikmalardan biri hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyov "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat sohasini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarida, shu jumladan mavjud axborot tizimlari va dasturiy-apparat komplekslaridan foydalanish (yoki samarasiz



qo'llash) borasida aniqlangan qonun buzilishlari, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida barcha davlat organlari va tashkilotlari rahbarlariga ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritiladi. Davlat organlari va tashkilotlari rahbarining raqamlashtirish bo'yicha o'rinbosarining (Chief Digital Officer) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyihalarni amalga oshirish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularning ishini har chorakda aniq natijalarga qarab baholab boriladi".

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595 sonli qonunining 53-moddasida ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv-uslubiy va didaktik materiallar ishlab chiqish, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish vazifalari belgilab qo'yilgan. Bu qaror shuni anglatadiki, har bir yo'nalish mutaxassislari axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanishni bilishlari va ularni qo'llashlari kerak. Hozirgi vaqtda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari yurtimizda axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi usullarda hal etishiga ham bog'liqdir. Ta'lim jarayonlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur ta'limiy faoliyatlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o'z navbatida, maktabgacha yoshdagi bolalarning mazkur ta'limiy faoliyatlari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarini chuqur egallashlarining asosiy omili bo'lib, ta'lim va tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishni o'rgatish ham ta'limda zamonaviy yondashuv sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga axborotkommunikatsiya texnologiyalari haqida boshlang'ich bilimlarni o'yinlar va metodikalar orqali bilim berishlari mumkin. Misol uchun, bolaga kompyuter haqida tushuncha berish orqali unda tasavvurlarni shakllantirish mumkin. XXI asr "Nanotexnologiyalar" asri sifatida bolalarning ta'limiy faoliyatlarida ham keng qo'llanib



kelinmoqda. Hozirgi davrda bolalarga oddiy o'quv qurollari va zamonaviy texnologiyalar uyg'unligida ta'limiy faoliyatlarni tashkil etish ko'proq samara beradi. Pedagog-tarbiyachilar o'zlarining kreativ g'oyalari orqali ta'limiy faoliyatlarni tashkil etishda innovatsion metodikalarni qo'llashlari kerak. Bolalarda boshlang'ich bilimlarni puxta egallashlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni Pedagog-tarbiyachilar raqamli texnologiyalar asosida puxta egallashlari mumkin. Ta'limiy faoliyatlarning samaradorligini oshirish maqsadida kompleks ta'limiy faoliyatlar tashkil etish mumkin. Kompleks ta'limiy faoliyatlar bir ta'limiy faoliyatlar bir qancha ta'limiy faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, biror bir didaktik o'yinni boshqa didaktik o'yinlar bilan birgalikda ya'ni bir-birini to'ldirgan holda tashkil etish mumkin.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati

Pedagogik texnologiyalar — bu ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishga xizmat qiluvchi metod va vositalar majmui. Ular quyidagi natijalarni beradi:

- Bolalarda mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi.
- Mashg'ulotlarni qiziqarli va samarali qiladi.
- Har bir bolaning individual qobiliyatlarini ochib berishga yordam beradi.
- Jamoada hamkorlikda ishlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan texnologiyalar

- Interfaol metodlar – “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert” kabi metodlar orqali bolalarda erkin fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.
- Axborot texnologiyalari – multimediali taqdimotlar, interaktiv doska va o'yinli dasturlar orqali bolalarda bilimga qiziqish ortadi.
- Montessori metodikasi – bolaning mustaqil tanlovi va faoliyatiga asoslanib, ularning individual rivojlanishiga sharoit yaratadi.
- O'yin texnologiyalari – rolli va didaktik o'yinlar orqali bilim va ko'nikmalar mustahkamlanadi.

Amalga oshirishdagi muammolar



- Pedagoglarning zamonaviy texnologiyalarni yetarlicha bilmasligi.
- Texnik vositalarning yetishmasligi.
- Metodik qo'llanmalar va resurslarning kamligi.

Muammolarni hal etish yo'llari

- Tarbiyachilar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini texnik jihozlash.
- Innovatsion metodlarni qo'llashda mahalliy sharoitga moslashtirilgan dasturlar yaratish.

Maktabgacha ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish – bu nafaqat ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish, balki bolalarda mustaqillik, ijodkorlik va ijtimoiy faollikni rivojlantirish uchun muhim omildir. Shu bois pedagoglar innovatsion metodlarni chuqur o'zlashtirib, ularni amaliyotda qo'llashlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son 16.12.2019
2. 2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-357-son 22.08.2022
3. Maktabgacha pedagogika. Kayumova.
4. <https://lex.uz/docs/-6166539>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-limda-axborot-texnologiyalari>
6. <file:///C:/Users/AsrFayzi/Downloads/kouching-texnologiyasi-pedagogik-kompetentsiyani-oshirish-shakli-sifatida.pdf>
7. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=07f0edgAAAAJ&citation_for_view=07f0edgAAAAJ:9yKSN-GCB0IC